

Ушбу мақолада ўзбек ва озарбайжон халқлари ўртасидаги адабий алоқаларнинг ривожланишида икки қардош халқнинг сеvimли шоири, забардаст драматург, адабиётшунос олим ва таржимон Мақсуд Шайхзоданинг Ўзбекистондаги ҳаёти, ижоди, яратган ўлмас асарлари ва фаолияти хақида сўз юритилган.

В данной статье говорится о развитии отношений между Узбекистаном и Азербайджаном в области литературы, о жизни, творчестве, созданных бессмертных произведениях и деятельности Мақсуда Шейхзоды, любимого поэта двух народов, великий драматург, литературоведа и переводчика в Узбекистане.

This article deals with the development of relations between Uzbekistan and Azerbaijan in the field of literature, the life, work, created immortal works and the activities of Maqsud Sheikhzoda, the favorite poet of the two peoples, a great playwright, literary critic and translator in Uzbekistan.

“QUTADG‘U BILIG”NI OBRAZLAR TIZIMI ASOSIDA O‘RGANISH USULLARI

O.K.Ametova – *katta o‘qituvchi*

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU

Tayanch so‘zlar: obraz, obrazlilik, badiiy tasvir, qiyoslash, mavzu, shakl, mazmun.

Ключевые слова: образ, образность, художественное изображение, сравнение, тема, форма, содержание.

Key words: image, imagery, art image, comparison, theme, form, content.

Adabiy ta’limdagi badiiy asar tahlili jarayonini to’g’ri tashkil qilishda o’quvchi – kitobxon adabiy-nazariy tushunchalarni bilishi, ularning o’xshash va farqli jihatlariga haqida tasavvurga ega bo’lishi lozim. Chunki (istaymizmi, yo’qmi) tahlil jarayoni bosqichlarida o’qituvchi va o’quvchi eng kamida quyidagi adabiy-nazariy tushunchalarni qo’llaydi hamda ular haqida tushunchaga ega bo’lishi tavsiya etiladi: 1. Asarni tur va janr xususiyatlariga ko’ra o’rganish. 2. Asarning kompozitsiyasi va syujeti haqida tasavvur hosil qilish. 3. Asarni obrazlar tizimi asosida tahlilga tortish. 4. Asardagi badiiy-tasviriy vositalar tahlili. 5. Badiiy asar tili tahlili. 6. Vazn, shakl, hajm (agar she’riy asar bo’lsa) tahlili. 7. Peyzaj tahlili. 8. Asardagi ma’lum bir epizodlar tahlili. 9. Adibning so’z qo’llash mahorati tahlili... Albatta, bu ro’yxatni o’qituvchi o’z fantaziyasi, sharoit hamda vaqt taqozosiga ko’ra davom ettirishi yoki qisqartirishi mumkin. Adabiyot o’qituvchisi bu ishlarining birortasini juda muhim yoki nomuhimga chiqarmasligi lozim. Ma’lumki, yuqoridagi kabi adabiy-nazariy tushunchalar haqida bilim – birdaniga yoki bir-ikki soatlik dars bilan hosil qilish mumkin bo’lmagan hodisa. Buning ustiga adabiyot fani yuzasidan yaratilgan Dasturda adabiy-nazariy atamalarini o’rganish uchun maxsus soatlar ajratilmagan. Shunday ekan bunday tushunchalarni singdirishda ham o’qituvchi fidoyilik ko’rsatishi, ya’ni har bir dars soatidan ma’lum bir daqiqalarni ajratishi yoki sinfdan tashqari mashg’ulotlarda maxsus fan sifatida o’rgatishi, eng kamida mustaqil o’qish uchun uyga vazifaga qo’shib berishi hamda nazorat qilishi lozim. Zero, o’quvchi shu bilimlar bilan qurollansagina, asarning mazmun-mohiyati, ijodkorning maqsad-muddaosini anglab yetadi, his qiladi, tahlilga to’g’ri yondashadi, mustaqil fikrlaydi hamda asardan estetik zavq ola biladi. Yuqoridagi tahlil bosqichlarini bir-biridan ayro, ajratib qo’yish ham mumkin bo’lmagan holatdir. Bu bosqichlar har doim bir-birini taqozo qiladi, biri ikkinchisini to’ldirib boradi. Biz ushbu maqolada badiiy asar tahlilidagi ana shunday zarur bo’g’inlardan biri – asarni obrazlar tizimi asosida tahlilga tortish masalasi haqida fikr yuritamiz. Asarni sevib mutolaa qilish, o’qiganlarni mushohada qilish, uning kitobxon tafakkur va taxayyuliga ta’siri, asar haqida o’ylash – mulohazaga undashi, xulosa qilishga chorlashi asarning obrazlilik va obrazlar tizimi bilan bog’liqdir. Obrazlilik va badiiy obraz haqida adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov: “San’atkor badiiy obraz vositasida dunyoni anglaydi, o’zi anglagan mohiyatni va o’zining anglayanotgan narsaga hissiy munosabatini ifodalaydi. Shu ma’noda obraz adabiyot va san’atning fikrlash shakli, usuli sanaladi; obrazlar vositasida fikrlagani uchun ham adabiyot va san’atga xos fikrlash tarzi “obrazli tafakkur” deb yuritiladi” [1:88], – deydi. Badiiy adabiyotda obrazlilik va badiiy obraz tushunchalari, umuman obrazli fikrlash kecha yoki bugun paydo bo’lmaganligi folklor va qadimgi yozma adabiyot namunalaridan ma’lum. Fikrimizning yorqin ifodasi qadimgi turkiy adabiyotning buyuk obidasi

“Qutadg‘u bilig” [2,3] asari bo’la oladi. Yusuf Xos Hojib o’zining falsafiy, axloqiy-ta’limiy qarashlarini faqat pand-nasihati tarzidagina bayon etishni maqsad qilib olgan emas, balki u jamiyat a’zolarini bezovta qilayotgan ko’plab muammolar hamda ularning yechimini badiiy-estetik jihatdan mukammal, ta’sirli ifodalashni ko’zda tutgan. Bu niyatning mutlaqo o’ziga xos, original tarzda, ayni paytda yuksak mahorat bilan amalga oshganligi “Qutadg‘u bilig”ni ilk marta o’rgangan tadqiqotchilardan boshlab, zamonaviy ilm ahli tomonidan ham yakdillik bilan tan olingan. Maktab adabiy ta’limida bu asarni o’qitish va o’rgatish uchun 11-sinf Adabiyot [3:70] darsligida ancha salmoqli matn berilgan. Dasturda esa bu mavzuni o’rganishga 3 soat vaqt ajratilgan. Agar bu vaqtning 1-soatini adib tarjimayi holi, asar haqida umumiy ma’lumot hamda matnning ma’lum bir qismini o’qishga sarflab, qolgan qismni uyda o’qib, uqib tahlilga tayyorgarlik ko’rishlari haqida topshiriq bersak, 2-, 3-soatda asarni obrazlar tizimi asosida tahlil qilish mumkin bo’ladi. Buning uchun o’quvchilar badiiylilik, obrazlilik, badiiy obraz kabi terminlar haqida quyidagi ma’lumotlardan boxabar bo’lishi lozim: Badiiylilik, obrazlilik – san’atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri badiiy obrazdir. Aslida “obraz” so’zi slavyan tillariga xos bo’lib, u voqea-hodisalarning xayolda namoyon bo’ladigan manzarasini bildiradi. Obraz yaratish yo’llari 2 xil: jamlash yo’li bilan; prototip (yunoncha “protos” – ilk; “tupos” – nuqta, nishona) asosida. San’atkorning turmush haqidagi orzu va umidlarini tasvirlagan obraz romantik, hayotiy voqea-hodisalarni aks ettirsa, realistlik obraz sanaladi. Adabiy tur va janrlar, uslub va tasviriy vositalarga ko’ra epik, lirik, dramatik, xayoliy-fantastik, afsonaviy, mifologik, ramziy-majoziy (simvolik), kinoyaviy (allegorik), satirik, yumoristik obrazlar ham tasnif qilinadi. Asar syujetida faol yoki nifaolligiga ko’ra obrazlar yana 2 xil bo’ladi: bosh, yordamchi (epizodik). Adib tarix va zamona materialiga murojaat qilishiga ko’ra quyidagi obrazlarni vujudga keltiradi: tarixiy, zamondosh. Ushbu nazariy bilimlar egasi bo’lgan o’quvchi “Qutadg‘u bilig”dagi obrazlarning ramziyligi, har qaysi obraz bitta mavhum (adl, davlat, aql, qanoat) tushunchaning mohiyatini ochuvchi, anglatuvchi obraz ekanligini anglab yetadi. Bu haqda amerikalik ijodkor Jorj Karlin shunday deydi: “Bollalarni o’qishga o’rgatishdan ko’ra o’qiganlari haqida fikrlashga o’rgatish muhimroq”. O’qituvchi asarda 4 nafar asosiy qahramon: Kuntug’di, Oyto’ldi, O’gdulmish va O’zg’urmishdan tashqari Ersig, Kusamish nomli epizodik qahramonlar ham mavjudligini, ularning ham asar syujetida o’ziga xos o’rni borligini aytib o’tishi lozim. O’quvchi qiziqishi natijasida to’g’ridan to’g’ri asarning to’liq matnidan ular haqidagi sahifalarni mustaqil o’zlashtirishlari mumkin bo’ladi. Har qanday asarni obrazlar tizimi orqali tahlil qilishda quyidagi ish turlarini ketma-ketlikda qo’llash mumkin: 1. Obrazlarning nomlari tahlili. 2. Har bir qahramonga berilgan amal-mansab, lavozim tahlili. 3. Muallif

va qahramon nutqi tahlili. 4. Adabiy qahramonlarning qiyosiy tahlili. 5. Asarda ko'tarilgan masalalar yuzasidan uy inshosi va uning tahlili. Asar qahramonlariga tanlangan nomlar ustida mulohaza qilinganda o'quvchi bu ism – nomlarning sof turkiy qatlamga mansubligini bilishi va bu nomlarni quyidagicha sharhlay olishi lozim:

Kuntug'di – tug'gan kun (turkiy tillarda mavjud bo'lgan qadimiy ibora, frazeologizm). Bu ibora, matnda, ishi yurishmoq, omadi kelmoq, baxti ochilmoq, niyatiga yetmoq kabi ma'no-mazmunni tashishga xizmat qiladi. Oyto'ldi – to'lgan oy (paydo bo'lish, hayot kechirish, yo'q bo'lish, tugashga ishora). Oyning tabiiy, juda go'zal yorug' holatidan kelib chiqib ramziy-majoziy ma'noda mahorat bilan qo'llangan nom. O'gdulmish – aql bilan to'lgan (oqil, donishmand, bilim, yuksak madaniyat va ma'naviyat egasi). O'zg'urmish – uyg'otuvchi, ogohlantiruvchi (nafs domiga tushib, uning domida uxlayotganlarni uyg'onishga, undan qutulishga da'vat etuvchi). Ersig – haqiqiy erlik (insoniylik) fazilatlarini jamlagan kishi. Kusamish – istalgan (jamiyat istagan, xohlagan, sog'ingan kishi).

Adabiy qahramonlar egallagan amal-mansab, lavozim tahlilida quyidagilar ta'kidlanishi maqsadga muvofiq:

Kuntug'di – elig, ya'ni hukmdor. Adibning o'zi uni adolat ramzi deydi. Bizningcha, Kuntug'di donishmandlik, bilimdonlik, tajriba, jismoniy va ma'naviy sog'lomlik ramzi hamdir. Matn bilan tanishish asnosida kitobxon Kuntug'dining adib nazaridagi, orzusidagi ideal hukmdor ekanligini anglab yetadi. Asar davomida Kuntug'di tomonidan kun tartibiga qo'yilayotgan masalalar, savollar, suhbatdoshining javobiga berilayotgan fikr-mulohazalar uning qay darajada bu mansabga loyqligini yaqqol ko'rsatadi. Demak, bunday amaldor – davlat peshanasining yaraqlashi, kun tug'ishidir.

Oyto'ldi – vazir, eligning ishongan a'yonlaridan biri. Mana shu obraz tahlilida e'tibor qaratish lozim bo'lgan bitta nuqta borki, uni, albatta, o'quvchi bilishi lozim, deb hisoblaymiz. Oyto'ldi asli poytaxtlik emas, ammo o'zidagi qobiliyat, kuchli bilim, katta tajribadan davlat va xalq manfaatlarini uchun, jamiyat farovonligi uchun foydalanishlarini istaydi. Buning uchun esa hokimiyatda, eligning qoshida bo'lish lozim, degan xulosaga keladi va o'z maqsadini amalga oshirish yo'lida harakat qiladi. Harakat o'z natijasini bermay qolmaydi, u shaharda yaxshi insonlarga duch keldi, ancha mashaqqatlardan keyin bu insonlar ko'magida Kuntug'diga ro'para bo'ldi, elig ishonchiga kirdi: ezgu xulqi va to'g'ri amali tufayli oliy davlat lavozimi – vazirlik maqomiga erishdi. O'qituvchi bu obraz misolida yoshlarga "Kishi o'z oldiga ezgu maqsad qo'yishi, unga erishish yo'lida tinimsiz harakat qilishi va yuksak natijalarga erishishi, muhimi, maqsad sari to'g'ri harakat qilishi lozim", g'oyasini singdirishi mumkin. Katta hayot ostonasida turgan 11-sinf o'quvchisining taqdirida bu motivatsiya kutilmagan ijobiy burilishlarga sabab bo'ladi. Afsuski, asar voqealari davomida Oyto'ldi olamdan o'tadi, chunki u davlat ramzi, davlat esa bir kun kelib tugashi, yo'q bo'lishi – haqiqat. Ammo u o'ziga munosib, shu mansabga loyiq voris qoldiradiki, darsda bu manzarani hayot bilan bog'laydigan bo'lsak, har bir donishmand, bilimdon kishi o'ziga mos shogird topib tarbiya qilmog'i lozim. Hech kim hayotda abadiy emas. Ustoz ko'rmagan shogirdning esa har maqomga yo'rg'alashi, oqibatda kulgi bo'lishi xalq nazari-dasinalgan holatdir.

O'gdulmish obrazini adib alohida muhabbat bilan tasvirlagani, bu obraz yoshlar uchun namuna maktabi bo'la olishini o'qituvchi tahlil jarayonida alohida uqtirishi lozim. U – aql timsoli. Asar voqealariga qaytadigan bo'lsak, O'gdulmish otadan juda yosh, aniqrog'i, o'smirligida ajraladi. Ammo otadan ajralgandan keyin ayrim yoshlarga o'xshab, tushkunlikka tushib, hayotning turli-tuman, qing'ir-qiyshiq ko'chalariga "bir ko'rish" uchun kirib ketmaydi, balki otasining pand-u nasihatlariga amal qilib, ezgu o'yli, ezgu so'z va amalli inson sifatida shakllanadi.

"Bilim – kishini ko'kka yetkazadi", – deydi muallif. Darhaqiqat, izlanish, o'rganish, bilim olish natijasida O'gdulmish eligning nazariga tushib, davlat boshqaruv siyosatida faol boshqaruvchilardan biriga aylanadi. Uning ham surati va siyrati haqida asar dialoglaridagi savol-javoblardan bilib olish mumkin bo'ladi. Bu obraz misolida mamlakat oqillar kengashi asosida adolat bilan idora qilinmog'i lozim, degan xulosaga kelish mumkin.

O'zg'urmish obrazi tahlili – alohida mavzu, chunki bu obraz tahlili uchun o'quvchida diniy-tasavvufiy bilimlar bo'lishi shart. Adib bu obrazni bekorga Qanoat, Ofiyat (sog'lomlik) ramzi sifatida bermagan. Bilamizki, bu asar turkiy yozma adabiyotdagi ilk (hozirgacha bo'lgan davrdagi bizga ma'lum asarlar orasida) badiiy doston hisoblanadi. Asar XI asr, ya'ni islom dini ta'siridagi adabiyot namunasidir. Shunday ekan biz O'zg'urmish obrazida taqvodor, zohid, Nafsdek dushman borligidan ogoh etuvchi, sergaklantiruvchi qiyofani ko'ramiz. Matndagi u bilan bog'liq suhbatlarni tahlil qilganimizda: "O'zg'urmish tim-solida Yusuf nafsga erk bermaslik, buning o'rniga toatibodat bilan band bo'lish, halollik, birovning haqini yemaslik, boriga qanoat qilib kun ko'rish, haromdan hazar qilish kabi kundalik amallarni bajarishni ommaga da'vat qilishni ilgari suradi" [4:183].

Kusamish – "istalgan" mazmunini beruvchi nom bilan harakat qiladigan obraz. Oyto'ldi shaharga kelganda uchragan yaxshi insonlardan biri. U hech qanday amal, mansab, lavozim egasi emas, balki oddiy fuqaro. Ammo shu oddiy inson ezgu ishning sababchisiga aylanadi: Oyto'ldidek zakovatli insonning elig bilan uchrashmoq istagi borligini xos hojibga – Ersigga yetkazadi. Oyto'ldi mana shu voqeadan keyin Ersigning savol-so'rog'i – sinovidan o'tadi. Uning tug'ma zakovat egasi ekanligini bir ko'rishdayoq seza olgan Ersig elig bilan uchrashuv kunini tayin qiladi. Kusamish asarning boshqa o'rinlarida umuman qatnashmaydi, epizodik obraz, ammo juda katta bir ishni muvaffaqiyat bilan amalga oshira olgan shaxs sifatida gavalanadi.

Ersig – eligning yaqin kishisi, xos hojib lavozimida. Elig bilan uchrashuvga kelganlarni avval uning o'zi sinovdan o'tkazishiga qaraganda donishmandligi, yurtparvar, elparvarligi sabab bunday yuksak lavozimga ko'tarilgan, desak mubolag'a emas. Agar Ersig xos hojib munosib ko'rsagina, elig huzuriga kirish baxtiga muyassar bo'lmoq mumkin. Bu voqealar tahlilidan shunday xulosa qilish mumkin: har qanday amal-mansab unga munosib, saviyali insonga berilsa, taraqqiyotga, rivojlanishga yo'l ochiladi. Aks holda davlat (tashkilot, muassasa) tanazzulga yuz buri-shi muqarrar.

Muallif va qahramonlar nutqi tahlili bosqichida o'quvchi har bir obrazning tabiati, fe'l-atvori nafaqat muallif, balki o'z nutqi orqali namoyon bo'lishini anglagan holda matnni ongli o'qishi hamda uqishi lozim. Bu qahramonlarning har biri hayotda muayyan maqsadlarni ko'zlashi ham o'zaro suhbatlardan anglashiladi.

Qahramonlarning qiyosiy tahlilida ulardagi umumiy insoniy fazilatlar hamda shu qahramonning o'zidagina uchraydigan xislatlar muhokama qilinadi. Ularni birlashtirib turadigan nuqtalar oz emas, ayni paytda ular orasidagi ayirmalar ham ko'zga tashlanib turadi. Masalan, qahramonlarning barchasi og'ir, bosiq, donishmand, oqil, tajribali, ammo O'gdulmishda hali yosh bo'lgani uchun bilim yetarli, tajriba yo'q ... kabi.

Navbatdagi ish – "Yusuf Xos Hojibning obraz yaratish mahorati", "Men sevgan qahramon" kabi mavzulardan birida uy inshosini yozishda ham o'quvchi qayta-qayta matnga murojaat qiladi, asar haqidagi qo'shimcha adabiy-tanqidiy manbalar ustida ishlaydi hamda shaxsiy fikr-mulohazalarini qog'ozga to'kadi. O'qituvchi bu insholar tahlili orqali o'quvchidagi nafaqat og'zaki, balki yozma nutq rivojiga ham e'tibor qaratadi. "Qutadg'u bilig" asarini o'rganishning oxirgi soatida o'quvchilar o'zlari yod olgan parchalarni

o'qiydilar hamda asardan olingan taassurotlarini bayon qiladilar, o'qituvchi bu fikrlarni umumlashtirib, yutuq va kamchiliklarni aytib darsni xulosalaydi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, har bir san'atkor – adib o'zi yaratgan o'nlab, yuzlab qahramonlar orqali jamiyat –

insoniyatni tarbiyalaydi, ma'naviyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Ma'naviyatli va madaniyatli, barkamol insonni tarbiyalash esa barcha zamonlar, shu jumladan, hozirgi kunning ham dolzarb vazifalaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. OTM (Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili), O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishlari) talabalari uchun darslik. –T.: Akademnashr, 2018. 480-b.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig, 2-nashr. – T.: «Fan», 1972.
3. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. 198-b.
4. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. –T.: Sano-standart, 2017. 555-b.

REZYUME

Ushbu tadqiqot ishida turkiy yozma adabiyotning yirik namunasi “Qutadg'u bilig”dagi obrazlar tizimi, jumladan, Aql timsolining badiiy tasviri haqida fikr yuritiladi. Tasvir jarayonidagi adibning so'z qo'llash mahoratiga e'tibor qaratiladi. Buning uchun asar qahramonlari qiyoslanadi, o'xshash va farqli jihatlar tahlilga tortiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье исследуется система образов в «Kutadgu bilig», о главном образце турецкой письменной литературы, включая художественное изображение образа Разума. Акцент делается на навыки писателя в процессе рисования. Для этого сравниваются главные герои произведения, анализируются сходства и различия.

SUMMARY

This study examines the system of images in “Kutadgu bilig”, a major example of turkish written literature, including the artistic depiction of the image of the Mind. Emphasis is placed on the writer's wording skills in the drawing process. To do this, the protagonists of the work are compared, similarities and differences are analyzed.

ДЭСТАН ДӨРЕТИЎ ДЭСТУРИ ХАМ «ҚЫРЫҚ ҚЫЗ»

К.Алламбергенов – *филология илимлериниң докторы, профессор*
Әжинияз атындағы Нөкис мәмлекетлик педагогикалық институты

Таянч сўзлар: қахрамонлик достон, достон генезиси, «Аёллар подшолиги хакида эртақ», «Гүлойим» эртаги, анъанавий ва якка муаллифлик ижодиёт, достон яратиш анъаналари, достондаги миллийлик белгилари: миллий тил, миллий ҳудуд, миллий рухий тузилиш, миллий анъана, миллийликни кўрсатуви ижтимоий-иқтисодий турмуш тарзи, бошқа кўшни халқлар билан бўлган тарихий-маданий алоқалар, миллийликнинг тавсифланишида миллий жиров-шоирларнинг ижодий ўрни, «Қирик киз» - бошқа халқларда ўхшаш ийўқ миллий қорақалпоқ халқ достани.

Ключевые слова: героический дастан (эпос), генезис дастана, «Сказка о женском царстве», сказка «Гүлайим», принципы создания коллективных и индивидуально авторских форм дастана, национальные атрибуты в дастане: национальный язык, национальная территория, национальный психологический склад, принципы традиции дастанов творения, национальный показатель социально-экономического образа жизни, историко-национальные связи соседствующих государств, творческий вклад жирауов в создании дастанов, «Қырық кыз» - каракалпакский народный дастан, которые не имеет аналогов у других нации.

Key words: heroic epic poem, epic genesis of dastan, «Womanizing country» fairytale, «Gulayim» fairytale, social and solo masterpiece, principles of dastan (epic-poem) creating, national attributes of dastan: national language, regional territory, national psychological image, national traditions, national life-style, relationship with neighboring countries, contribution of dzhiraw in national dastan presenting, «kyryk kiz/Fourty girls» - unique dastan of Karakalpak folk.

«Қырық кыз» дэстаны қахарманлық мотивтиң жыр етилиўи бойынша «Алпамыс», «Едиге» сыяклы қахарманлық, тарийхый-қахарманлық дэстанларға мәлим дәрежеде уса болып келсе де, өзиниң бир қатар басқа сыпатлы белгилери менен бул дэстанлардан түпкиликли парк етип турады. Бул парық, биринши гезекте, дэстанның хэм жәмәәтлик қыялдың, хэм, соның менен бир ўақытта «фольклор шығармаларының жекке талантлы адамлар тәрәпинен дөрелиўиниң өзгеше бир көриниси» [4] екенлиги менен көзге тасланады.

Хақыйкатына келгенде, «Қырық кыз» дэстаны, қаншелли жекке дөретиўшилиқ қыялдың жемисинен туўған болса да, «шын мәнисиндеги халықлық, жетиліскен фольклорлық дөретпе» [4].

Дурыс, жоқарыда атап өткенимиздей, дэстан мазмунында жекке дөретиўши қыялының күши айқын көзге тасланады, онда жекке мотивлерден гөре жәмийетлик, халықлық мотивлердиң үстин турыўы, халық күшине сүйенген қахарманлар образының реалистлик планда жасалыўы, массалық қахарманлықтың берилиўи, сўўретленген ўақыяларда миллий турмыс тәризи хэм тарийхый шынлықтың излериниң айқын көзге таслануы, дэстан сюжетинде гөне мифлик мотивлердиң дерлик ушыраспаўы, дэстүрлик халық эпосына тән мифлик, гиперболалық сўўретлеўлерден бир қанша қашық турыўы, реалистлик сўўретлеўлердиң басымлығы, дэстан қурылысының ески қахарманлық дэстанлардағы қара сөз бенен қосық араласып келетуғын формадан узақласып, тек ғана жыр қосық қатарларынан ибарат болып келиўи – бул дэстанда сөзсиз жеке авторлық ҳуқыққа ийе индивидуаль дөретиўши жыраў – шайырдың қолы бар екенлигинен дәрек береді.

Дэстандағы усы сыпатлы белгилер соңғы ўақытлары бир қатар фольклоршылар менен әдебиет тарийхшыларына жаңа ой жуўмақларын жасаўға, жәмәәтлик творчество ызымлылықларын жаңаша көзқараста үйреніўге кең мүмкиншилиқлер туўдырып берип отыр. Мәселен, көрнекли фольклорист Қ.Мақсетов өзиниң Қурбанбай жыраўдың 120 жыллығына бағышланған «Пикирди өзгерткен уллы жыраў хаққында» деген мақаласында [4] Қурбанбай жыраўдың «Қырық кыз» дэстанын қайта дөретиўдеги жекке дөретиўшилиқ үлесин көрсетип бериўи арқалы фольклорда индивидуальлық творчествоның ҳүким сүриўи мәселесин хәр тәрәплеме сөз етсе, белгилі әдебиет тарийхшысы С.Бағадырова «Жийен жыраў хэм Гүлайим ертеги хаққында» [1:75-77] деген мақаласында Жийен жыраўдың «Қырық кыз» дэстанын дөретиўде усы дэстанның негизи болған «Гүлайим» ертегин шайырлық устанханасында қалай қайта ислеп шыққанлығы мысалы менен карақалпақ эпосшыларында бул жекке дөретиўшилиқ дэстүрдиң, яғный, шайыр-жыраўлар тәрәпинен дэстан дөретиў дэстүриниң сағалары Жийен жыраў заманынан берли орын алып қиятырғанлығын дәлиллеўге умтылады.

Дэстандағы жекке дөретиўшилиқ дэстүрдиң, яғный шайыр-жыраўдың дэстан дөретиў дэстүриниң, анығырағы жәмәәтлик творчестводағы жекке авторлық қолтаңбаның үлесин дэстанда реалистлик сюжетлик мотивлер менен реалистлик образлардың кең орын алыўы да дәлиллен турады.

Деген менен, шайыр-жыраўлар дэстанды дөретерде бурыннан қиятырған жол – фольклорлық реализмнен пухта пайдаланған. Себеби, дэстан дөретиў дэстүри түркий халықлар фольклорында әйем заманлардан